

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA "UCHINCHI RENESSANS" TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING ZARURATI

M. Maxmudova¹

Annotatsiya:

Mazkur maqolada globallashuv va integratsiya jarayonlarida milliy qadriyatlarni saqlash, milliy o'zlikni anglash va o'z xalqining ilmiy-ma' rifiy merosini o'rganish zarurligi ta'kidlanadi. Sharq Uyg'onish davrlarida Movarounnaxr olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy yutuqlarning jahon sivilizatsiyasidagi o'rni ko'rsatilib, hozirgi kunda Uchinchi Renessans davriga zamin yaratish vazifalari tahlil qilinadi. Uchinchi Renessans tafakkuri ruhida ta'lim berish, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etishning ahamiyati ko'rib chiqilgan. Maqolada ilmiy-pedagogik manbalar, tarixiy yondashuvlar va amaliy tadqiqotlar orqali maktab o'quvchilarida innovatsion va intellektual salohiyatni shakllantirish masalalari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Uchinchi Renessans, milliy qadriyatlar, ilmiy meros, ta'lim va tarbiya, innovatsion yondashuv, milliy o'zlik, Sharq Uyg'onish davri, intellektual salohiyat, zamonaviy texnologiyalar.

Jahon miqyosida kechayotgan globallashuv, unifikatsiya, integratsiya jarayonlarida milliy xususiyatlar, milliy madaniyat va milliy qadriyatlar tizimini bilish, milliy o'zlikni anglash, o'z xalqi tarixini bilish, uning buyuk o'tmishini to'g'ri baxolash va idrok etish masalalari dolzarblik kasb etadi. "XXI asrga kelib ilk Sharq Uyg'onish davri - Musulmon Renessansi deb nom olgan o'rta asrlarda bugungi O'zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning jahon ilm-fani rivojiga qo'shgan bebaxo xissasi dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan xaqli ravishda tan olindi". Mashxur olim va faylasuf Jon Uilyam Dreyperning fikriga ko'ra, "Islom davri ilmlari o'z intellektual ta' sirini Yevropaga o'tkazdi" hamda "Yevropaning bugungi ulug' ziyosi musulmonlar yoqqan chiroqlarning yog'dusidan maydonga keldi".

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Diniy-ma' rifiy soxa faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 16 aprel PF-5416-sonli Farmonida ta'kidlanishiga ko'ra, "Ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda butun ma' rifatli dunyoni xayratga solib kelayotgan ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma'naviy mulki bo'lib, bu bebaxo boylik va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, eng muhimi, yangi kashfiyotlar uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir". O'rta asrlarda Islom Uyg'onish davrida ulug' ajdodlarimiz tomonidan ilm-fan, san'at va madaniyat keskin rivojlantirildi.

Natijada matematika, astronomiya, fizika, kimyo, geodeziya, farmakologiya, tibbiyot kabi aniq fanlar bilan bir qatorda, tarix, geografiya, falsafa, madaniyat va san'at, arxitektura soxalarida yaratilgan buyuk ilmiy g'oya va kashfiyotlar jahon ilm-fani va sivilizatsiyasi rivojida keskin burilish yasadi. Binobarin, mana shu betakror qadriyatlar majmui bo'lgan ilmiy merosni o'rganish, uning dunyo va islom sivilizatsiyasida tutgan o'rnini mutanosib baholash hamda yosh avlodlarni Uchinchi Renessans tafakkuri ruhida tarbiya qilish taqozo etiladi.

O'zbekiston tarixining birinchi Renessansi - Somoniylar davriga to'g'ri keladi. Bu davrda buyuk ajdodlarimizning yaratgan ilmiy-falsafiy asarlari va olamshumul kashfiyotlari islom sivilizatsiyasiga tamal toshi bo'lgan.

Ikkinchi Renessans - Amir Temur va Temuriylar davriga to'g'ri keladi. Nafaqat Movarounnaxr, balki butun Markaziy Osiyo o'lkalari o'z taraqqiyotining yangi pog'onasiga ko'tarilgan. Bu davrda davlatchilik asoslari takomillashib, shaharsozlik va me'morchilik avj olgan, xalqaro savdo va diplomatik aloqalar jadallashgan, ilm-fan, madaniyat va san'at soxalari rivojlangan.

¹ Maxmudova Muyassar Maxmudovna, Samarqand davlat chet tillar instituti professori, pedagogika fanlari doktori

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yillik tantanalarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti: «Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan xozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda», - deb ta'kidlanadi. Binobarin, umumta'lim maktablari o'quvchilarida Uchinchi Renessansni yaratuvchilar qudratini ko'rish va ularni mana shu ruxda tarbiya qilish zarur.

Jahon miqyosida mamlakatimiz Movarounnaxr dunyo sivilizatsiyasi beshigi, uning markazlaridan biri sifatida ma'lum va mashhurdir. Islom allomalari, tabiiy va ijtimoiy fanlar rivoji bo'yicha ajdodlarimiz noyob va boy meros qoldirganlar. Binobarin, ajdodlarimizning ilmlar rivojiga doir yozma merosini o'rganish, islom artefaktlarini qayta tiklash, Movarounnaxr olimlarining dunyo sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi salmoqli xissasini asoslash zaruriyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, bugungi avlodlarni Uchinchi Renessans ruhida tarbiya qilish, renessans g'oyalari, jumladan ilm fanga sodiqlik, intellektual safarbarlik, dunyo miqyosidagi yangi ilmiy yo'nalishlar, jumladan nano texnologiyalar, gen injeneriyasi, axborot texnologiyalari, tabiiy fanlarga, xususan matematika, fizika, ximiya, biologiyaga bo'lgan qiziqishni keskin o'stirish va ta'minlash zarur bo'lmoqda. Buning uchun esa maktab o'quvchilari tafakkurida Renessans tarixi, g'oyalari va maqsadlarini adekvat tarzda shakllantirish taqozo etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakatlar strategiyasi to'g'risida", 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106-son "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llab quvvatlash to'g'risida", 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida», 2017 yil 30 sentyabrdagi PQ-3304-sonli "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 26 sentyabrdagi PQ -3289-son "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa me'yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Mamlakatimizda so'nggi qariyb o'ttiz yil davomida tub ta'lim isloxtlari o'tkazildi, ta'limga innovatsiyalarni joriy etish masalasiga juda katta e'tibor qaratildi, qator monografiya, kitob, metodik manba hamda uslubiy qo'llanmalar yaratildi, dissertatsiyalar yoqlandi.

Ta'lim va tarbiyada innovatsion jarayonlar, Maktab ta'limi, interfaol usullar, ma'naviy barkamol shaxs tarbiyasi va ma'naviyatni shakllantirish masalalarida A. Munavvarov, M. Inomova, M. Ochilov, J.G. Yo'ldoshev, R.D. Jo'rayev, O. Musurmonova, S. Nishonova, M. Qo'ronov, Sh.E. Qurbonov, E. Yusupov, X. Shayxova, K. Nazarov, U. Maxkamov, S. Fayzulina, S. Annamuratova, U. Maxkamov, Safo Ochil, M. Quronov, M. Imomnazarov, K. Nazarov, Sh. Qurbonov, V. Karimova, G.R. Akramova, G.N. Navruzova, N. Ortiqov kabi olimlar tomonidan "komil inson" tarbiyasi, yoshlarni ma'naviy barkamol qilib shakllantirish masalalari tahlil qilindi. Aynan mustaqillik yillarida bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, axloq-odob saboqlari, inson ma'naviyatini shakllantirishning pedagogik asoslari, sog'lom turmush tarzi asoslari masalalari A. Munavvarov, M.O. Inomova, O. Musurmonova, S. Ochil, G.B. Shoumarov, D.D. Sharipova, T.A. Egamberdieva, M. Quronov, M. Maxmudova, U. Maxkamov, Z.X. Qosimova, F.R. Norboyeva va S. Xasanov kabi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etildi. Ta'lim tizimida tarbiyaviy ishlarning ilmiy-nazariy va metodik asoslari mamlakatimizning bir qator pedagog olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Shaxs ma'naviy-axloqiy madaniyati, oilaviy qadriyatlar tizimi va uning kriteriyalari (O. Musurmonova); Sharq allomalari ijodida komil inson tarbiyasi masalasi (S. Nishonova); xalq pedagogikasi mazmuni asosida talaba yoshlarni oilaviy xayotga tayyorlash tizimi xususiyatlari (M. Maxmudova); yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda milliy qadriyatlar axamiyati (M. Inomova); yuqori sinf o'quvchilarida axloqiy madaniyat (U. Maxkamov); o'qituvchi kompetensiyasida muallim odobi (M. Ochilov) kabi masalalar shular jumlasidandir.

Xususan, shaxsning intellektual tarbiyasi masalalarida MDH, xususan Rossiya, Tojikiston, Boshqirdiston, Tatariston, Qozog'iston; Qirg'iziston, Gruziya kabi davlatlarda diqqatga sazovor tadqiqotlar olib borildi.

Bizning yurtimiz Movarounnaxrdan bo'lgan Sharqning buyuk allomalari, ensiklopedik olimlar Muxammad Muso al-Xorazmiy (782-847), Abu Nasr Farobiy (870-910), Abu Rayxon Beruniy (973-1048), Abu Ali ibn Sino (980-1037); muxaddis, fiqshunos va mutasavvuf Imom Buxoriy (810-870), Xakim Termiziy (750/760-869), Imom Zamaxshariy (1075-1144), Imom Moturudiy (870-975), Burxoniddin Marg'iloniy (1116-1197), Najmiddin Kubro (1145-1221), Ahmad Yassaviy (tak.1050-1166/7), Yusuf Xamadoniy (1048-1140), Xoja Abduxoliq Gij'duvoniy (XI asrning birinchi choragi-1220), Xoja Baxouddin Naqshband (1318-1389), So'fi Olloyor (1644-1721), turkiy til asoschilari Yusuf Xos Hojib (XI acp), Ahmad Yugnakiy (XII-XIII asrlar), Mahmud Koshg'ariy (XI acp), xalq ardoqlagan shoir Paxlavon Mahmud (1247-1325), mutafakkir shoir Alisher Navoiy (1441-1501) kabilarning ma'naviy-axloqiy qarashlarida ham bola tarbiyasida aqlni rivojlantirish masalalari muhimligi ta'kidlab o'tilgan. Aqliy rivojlanish masalalari O'rta asrlar G'arb pedagogikasida M.Monten, Ya.A.Komenskiy, J.J.Russo, A.Gilvesiy, D.Didro, A.Disterveg, I.G.Pestalossi kabilardan tomonidan tadqiqot obyekti qilib qo'yilgan va uni amalga oshirishning usul va vositalari o'rganilgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarurligini taqozo qiladi:

- ilmiy-pedagogik, sotsiologik, falsafiy, tarixiy manbalarni qiyosiy-tipologik tahlil qilish asosida umumta'lim maktablari o'quvchilarida Uchinchi Renessans tafakkurini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari va amaliyotdagi xolatini belgilash;

- umumta'lim maktablari o'quvchilarida Uchinchi Renessans tafakkurini shakllantirishning strategiyasini ishlab chiqish, modernizatsiya qilingan didaktik ta'minotning samarali ekanligini isbotlash;

- umumta'lim maktablari o'quvchilarida Uchinchi Renessans tafakkurini shakllantirishda milliy ta'lim tizimining vazifalari, tizim strukturasi, maqsadlari va natijadorligini ta'minlashning shart-sharoitlarini, uning interfaol metod, shakl, vositalarini aniqlash;

- umumta'lim maktablari o'quvchilarida Uchinchi Renessans tafakkurini shakllantirishning eksperimental darajasi va samaradorligini belgilash, ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish va samaradorlik darajasini dalillash.

Yuqoridagi vazifalar amalga oshirilsa, u umumta'lim maktablari o'quvchilarida Uchinchi Renessans tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoning mazmunini uni shakllantirishga xizmat qiladigan innovatsion yondashuvlar pedagogik tajriba-sinovdan o'tkazilib, ishlab chiqilgan integratsiyalashgan tizimning samaradorlik darajasi belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 16 aprel PF-5416-sonli Farmoni.

[2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-son Qarori // Xalq so'zi, - 2017. - 25 may.

[3]. Tuychiyeva G.U. Islom davri she'riyatida aruz tizimi va uning evolyutsion taraqqiyoti. Filol. Fan. dokt. (DSc)... diss.avt. - Toshkent, 2018. - B.5

[4]. Boltakulova, G. Analysis of linguistic units representing time in English and Uzbek.

[5]. Xaydarovna X. Z. Pragmatic aspects of complex syntactic constructions (based on the materials of English and Uzbek languages) //American journal of education and learning. - 2024. - T. 2. - №. 4. - C. 516-520.

[6]. Rustamova S. The perception of communicative language teaching method in education //international conference on interdisciplinary science. - 2024. - T. 1. - №. 10. - C. 259-263.

[7]. Ulasheva O. G. Comparative-etymological study of kinship terms //Лучшие интеллектуальные исследования. - 2025. - Т. 38. - №. 4. - С. 158-163.

[8]. Мавлонова Н. Принципы размещения фразеологических единиц в статьях русско-тюркских словарей //Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit. - 2024. - С. 257-260.